

## MANZARALI BIR YILLIK O'SIMLIKLAR

**Jumayeva Dilnoza Abdusattor qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Biologiya  
(turlari bo'yicha) yo'nalishi 3 bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Bir vegetatsiya davrida o'sib, gullab meva beradigan o'simliklar bir yillik o'simliklar deyiladi. Bu gruppada ba'zi bir gullarning o'suv davri juda qisqa bo'lganligi tufayli ularni yoz bo'yi ochilib turishi uchun bir necha marta ekiladi. Bir yillik o'simliklar o'zgarib turuvchi iqlim sharoitiga moslashgan ko'p yillik o'simliklarning evolyutsiya jarayonida shakllangan. Manzarali bir yillik o'simliklar juda xilma xil va rang barang bo'lib, bularga rayhon va petuniyani misol keltirish mumkin. Ular hovli, bog' va xiyobonlarda xushmanzara ekin sifatida ekiladi.

**Kalit so'zlar;** urug', barg, meva, ko'sakcha, gul, xilma-xil, poya, o't, bir yillik, rang barang, issiqxona, yetishtirish, hosildorlik, to'pgul.

**Bir yillik o'simliklar** — barcha hayotiy sikllari bir vegetatsiya davrida, ya'ni bir yil davomida urug'idan unib chiqib, o'sib, gullaydigan, urug' beradigan va qurib tamom bo'ladigan o'simliklardir. Bu gruppada ba'zi bir gullarning o'suv davri juda qisqa bo'lganligi tufayli ularni yoz bo'yi ochilib turishi uchun bir necha marta ekiladi. Manzarali o'simon o'simliklarning ushbu gruppasiga mansub bo'lgan gullarning ko'pchiligida urug'idan ko'payish nisbatan oson. Shunga ko'ra ular manzarali gulxona hosil qilish uchun juda qo'l keladi. Vegetatsiya davri uzoq kechadigan bir yillik o'simliklar bahorgi va kuzgilarga bo'linadi. Bahorgi bir yillik o'simliklar bahor va yoz oylarida o'sib, hayot siklini 1 —5 oyda tugatadi. Kuzgi bir yillik o'simliklar urug'lari kuzda darhol unib chiqib, tomir oladi barglari rivojlanadi va shu tarzda qor tagida qishlaydi. Bahorda esa ular rivojlanishini davom ettiradi, gullaydi, urug' beradi

soʻng qurib qoladi. Bu guruhga kuzgi javdar, bugʻdoy, shuningdek koʻpchilik begona oʻtlar (jagʻ-jagʻ, boʻtakoʻz va boshqalar) kiradi. Bir yillik oʻsimliklar oʻzgarib turuvchi iqlim sharoitiga moslashgan koʻp yillik oʻsimliklarning evolyutsiya jarayonida shakllangan.

### **Rayhon**

**Rayhon (*Ocimum basilicum*)** — yalpizdoshlar oilasiga mansub bir yillik oʻtsimon oʻsimlik boʻlib, oʻzbekistonda manzarali, dorivor, oshkoʻk va ziravor ekin sifatida oʻstiriladi. Bu turkumning oq rayhon, qora rayhon, osh rayhon kabi turlari juda mashhurdir. 60 (ayrim maʼlumotlarga koʻra, 150) turi tropik va subtropik mintaqalarda oʻsadi. Rayhon 30-80 sm gacha oʻsib, poyasi tik oʻsuvchi toʻrt qirrali koʻp shoxlanadi. Barglari poyada qarama-qarshi joylashgan, kalta bandli, ellipssimon yoki tuxumsimon shaklda, kalta – kalta oqish tuklar bilan qoplangan. Bargining rangi va oʻsimlik shakliga qarab oq rayhon, osh rayhon, sada rayhon, qora rayhon, hoji rayhon kabi xillarga boʻlinadi. Gullari oq yoki pushti, poya va novdalari ichida boshoqsimon toʻpgulda yigʻilgan. Mevasi – toʻrtta urugʻdan tashkil topgan yongʻoqcha boʻlib, qoʻngʻir jigarrang tusda, silliq, dumaloq shaklda. 1000 dona urugʻi vazni 0,4-0,9 gramm.

Hosildorligi 40—80 s/ga teng. Yashil massasi tarkibida 0,3% efir moyi bor (efir moyining 70% ni atirupa, oziq-ovqat sanoati va tibbiyotida ishlatiladigan evgenol modsasi tashkil etadi). Urugʻi erta bahorda issiqxonada va parniklarga sepiladi, dalalarga, koʻcha va hiyobon maydonlariga koʻchat qilib ekiladi. Iyundan sentyabrgacha gullaydi. Mevalari sentabr – noyabrlarda yetiladi. Agar idishlarga koʻchirib, issiq xonalarda deraza oldiga oʻstirilsa, qish davomida ham vegetatsiyasini toʻxtovsiz davom ettiradi.

Urugʻlari unuvchanligini 3-5 yil saqlaydi.

### **Petuniya**

**Petuniya (*Petunia*)** — Solanaceae (ituzumdoshlar) oilasiga mansub bir va koʻp yillik manzarali oʻsimlikdir. Poyalari past boʻyli, uch qismi koʻtarilib (35—45 sm ga) oʻsadi. Bargi tuxumsimon, yaxlit. Guli yirik, oq, binafsha va qizgʻish, yakka, uzun

bandli, novdalarning uchidagi barg qo‘ltig‘ida joylashgan. Mevasi — ko‘sakcha, 13—15 (boshqa ma‘lumotlarga ko‘ra, 40) turi ma‘lum. Vatani — Shimoliy Amerika. Duragay Petuniyaning ko‘p navlari manzarali o‘simlik sifatida gulzorlarda o‘stiriladi. Oddiy va baxmalsimon gulli navlari ham bor.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- 1.O‘. Prator, L.Shamsuliyeva, E. Sulaymonov, X.Axunov, K. Ibodov, V. mahmudov, Botanika ( morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika) Toshkeny.
2. Botanika (o‘quv qo‘llanma). Toshkent 2018.
3. Tursunova Gulbahor Sultanova, Komilova Shoira Rafiqova Botanika asoslari ( o‘quv qo‘llanma). Toshkent 2009.
- 4.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 5.www. ziyouz.com kutubxonasi.